



**ADABIY KOMPETENSIYA TUSHUNCHASI: MAZMUNI, TARKIBI VA
RIVOJLANISH BOSQICHLARI**

<https://doi.org/10.70728/c.series.v08.i02.051>

Isabayeva Asida Yusufjonovna

*Namangan davlat pedagogika instituti doktoranti (DSc),
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),*

E-mail: asida.isabayeva@bk.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada adabiy kompetensiya tushunchasining nazariy asoslari, mazmuniy tarkibi va rivojlanish bosqichlari zamonaviy xorijiy hamda o‘zbek pedagogik tadqiqotlari asosida tahlil qilingan. Tadqiqotda strukturalistik, retseptiv-estetik, savodxonlik rivoji va neyrobiologik yondashuvlar qiyosiy o‘rganilib, ularning o‘zbek ta’lim tizimi, xususan, jadid adabiyoti nasriy asarlarini o‘qitishdagi didaktik imkoniyatlari yoritilgani. Natijada adabiy kompetensiya lingvistik, madaniy, tahliliy, estetik va ijodiy komponentlardan iborat integrativ va dinamik tizim sifatida talqin qilingan.

Tayanch so‘zlar: adabiy kompetensiya, jadid adabiyoti, interpretatsiya, didaktika, kompetensiyaviy yondashuv.

Аннотация. В статье на основе современных зарубежных и узбекских педагогических исследований анализируются теоретические основы понятия литературной компетенции, её содержательная структура и этапы развития. В ходе исследования в сравнительном аспекте рассмотрены структурный, рецептивно-эстетический, теории развития читательской грамотности и нейробиологический подходы, а также раскрыты их дидактические возможности в системе узбекского образования, в частности при обучении прозаическим произведениям джадидской литературы. В результате литературная компетенция интерпретируется как интегративная и динамичная система, включающая лингвистический, культурный, аналитический, эстетический и творческий компоненты.

Ключевые слова: литературная компетенция, джадидская литература, интерпретация, дидактика, компетентностный подход.

Abstract. This article analyzes the theoretical foundations, content structure, and stages of development of the concept of literary competence based on contemporary foreign and

Uzbek pedagogical research. The study comparatively examines structuralist, reader-response (receptive-aesthetic), reading literacy development, and neurobiological approaches, and highlights their didactic potential within the Uzbek education system, particularly in teaching prose works of Jadid literature. As a result, literary competence is interpreted as an integrative and dynamic system comprising linguistic, cultural, analytical, aesthetic, and creative components.

Key words: literary competence, Jadid literature, interpretation, didactics, competency-based approach.

KIRISH (Introduction)

Zamonaviy ta’lim paradigmasida adabiyot o‘qitish jarayoni faqat badiiy matn mazmunini o‘zlashtirish bilan cheklanmay, balki o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash, estetik did va madaniy ongni shakllantirishga qaratilgan kompetensiyaviy yondashuvni talab etadi. Shu nuqtai nazardan, adabiy kompetensiya tushunchasi pedagogika va adabiyotshunoslikda muhim nazariy kategoriya sifatida maydonga chiqmoqda.

Adabiy kompetensiya konsepsiyasi dastlab tilshunoslikda kompetensiya tushunchasi asosida shakllangan bo‘lib, keyinchalik adabiy matn talqin qilish, o‘quvchi va matn o‘rtasidagi interaktiv munosabatlarni izohlash uchun kengaytirildi. Xususan, strukturalistik, retseptiv-estetik, savodxonlik rivoji hamda neyrobiologik yondashuvlar adabiy kompetensiyani turlicha talqin qiladi. O‘zbek pedagogikasida esa ushbu tushuncha milliy adabiyot, madaniyat va qadriyatlar bilan uzviy bog‘liq holda rivojlanmoqda.

Mazkur maqolaning maqsadi adabiy kompetensiya tushunchasining nazariy asoslarini tizimlashtirish, uning mazmuni va tarkibini aniqlash hamda rivojlanish bosqichlarini jadid adabiyoti nasriy asarlarini o‘qitish kontekstida asoslab berishdan iborat.

METODLAR (Methods)

Tadqiqotda sifat tahliliga asoslangan nazariy-metodologik yondashuv qo‘llanildi. Xususan, xorijiy (strukturalistik, retseptiv-estetik, savodxonlik rivoji, neyrobiologik) nazariyalar tahlil qilindi. O‘zbek pedagogik va metodik tadqiqotlar qiyosiy o‘rganildi. Adabiy kompetensiya komponentlari va bosqichlari kontseptual tahlil usuli orqali tizimlashtirilib, jadid adabiyoti nasriy asarlari didaktik material sifatida kontseptual asosda ko‘rib chiqildi. Mazkur metodlar adabiy kompetensiyani statik bilim emas, balki integrativ va dinamik tizim sifatida talqin qilish imkonini berdi.

NATIJALAR (Results)

Adabiy kompetensiya tushunchasi zamonaviy pedagogika va adabiyotshunoslikning markaziy kategoriyalaridan biri bo‘lib, o‘quvchilarning badiiy asarlarni idrok etish, tahlil qilish va baholash qobiliyatlarini shakllantirishga qaratilgan murakkab tizimdir.

Ushbu tushuncha dastlab tilshunoslikda tadqiqotchi olim N. Chomsky tomonidan til kompetensiyasi sifatida taqdim etilgan bo‘lib, keyinchalik adabiyot nazariyasida rivojlantirilgan. Uning fikricha, “Kompetensiya – bu tilning cheksiz jumllarini to‘g‘ri tuzish va tushunish uchun inson ongida mavjud bo‘lgan ichki grammatik qoidalar tizimi”dir[3]. Jumladan, kompetensiya bu faqat bilim emas, balki ichki qoidalar tizimi bo‘lib, u orqali inson yangi matnlarni o‘z-o‘zidan tushunadi va yaratadi. Adabiyot kontekstida bu badiiy matnni “grammatikasi” orqali talqin qilishga asos bo‘ladi, ya‘ni o‘quvchi adabiy konventsionalarni intuitiv egallaydi.

Shuningdek, adabiy kompetensiyaning klassik ta‘rifi Jonathan Culler tomonidan berilgan bo‘lib, u o‘zining “Strukturalistik poetika” asarida adabiy kompetensiyani badiiy matnni talqin qilish uchun zarur bo‘lgan ichki qoidalarni egallash deb ta‘riflagan[5]. Bu kontseptsiya ta‘lim jarayonida o‘quvchilarda nafaqat adabiyotga oid deklarativ bilimlarni, balki protsessual ko‘nikmalar va qadriyatlar tizimini ham rivojlantirishni nazarda tutadi. Uning til nazariyasini adabiyotga o‘tkazib, strukturalistik yondashuvni taklif etgan. Uning fikricha, adabiy kompetensiya bu o‘quvchining matnni oddiy o‘qishdan farqli ravishda, uning konventsionalari (janr, stil, ramzlar) orqali chuqur tushunishidir. Maqsad o‘quvchini passiv o‘quvchidan faol talqin qiluvchiga aylantirish, masalan, she‘rning metaforasini “qoida” sifatida ko‘rishdir.

Boshqa bir tadqiqotchi Wolfgang Iser o‘quvchini markazga qo‘yib, retseptiv-estetik yondashuvni rivojlantirgan. Xususan, uning fikricha, “adabiy kompetensiya – bu o‘quvchining matn bilan interaktiv munosabati orqali bo‘shliqlarni to‘ldirish va shaxsiy ma‘no yaratish qobiliyatidir”[6]. Ya‘ni kompetensiya statik bilim emas, balki dinamik jarayon – o‘quvchi matndagi “bo‘shliqlarni” (noaniq joylarni) o‘z tajribasi bilan to‘ldiradi. Boshqacha aytganda, o‘quvchining shaxsiy interpretatsiyasini rag‘batlantirishni ilgari suradi. Masalan, roman syujetidagi ochiq tugallarni o‘zi yakunlash tushuniladi.

Shuningdek, adabiy kompetensiyaning savodxonlik rivoji kontekstida ta‘rifi Jeanne S. Chall tomonidan berilgan bo‘lib, u o‘zining “O‘qish rivojlanish bosqichlari” asarida adabiy kompetensiyani matnni o‘qishdan tortib, uning mazmunini tanqidiy tahlil qilish va hayotga tatbiq etishgacha bo‘lgan savodxonlik bosqichlarining yuqori darajasi deb ta‘riflagan[2]. Bu kontseptsiya ta‘lim jarayonida o‘quvchilarda nafaqat boshlang‘ich o‘qish ko‘nikmalarini, balki tanqidiy fikrlash va amaliy qo‘llash qobiliyatlarini ham bosqichma-bosqich rivojlantirishni nazarda tutadi. Uning pedagogik yondashuvini taklif etgan. Uning fikricha, adabiy kompetensiya bu o‘quvchining matnni oddiy idrok etishdan farqli ravishda, uning mazmunini ijtimoiy va hayotiy kontekstda tahlil qilishidir. Maqsad o‘quvchini oddiy o‘quvchidan tanqidiy va amaliy mutaxassisga aylantirish, masalan, roman syujetini zamonaviy muammolar bilan solishtirib baholashdir.

Boshqa bir tadqiqotchi Maryanne Volf neyrobiologik asosda adabiy kompetensiyani o‘rganib, o‘zining “Prust va kalmar: O‘qish miyasining hikoyasi va ilmi” asarida adabiy kompetensiyani miyaning o‘qish tarmoqlarini faollashtirish orqali empatiya, tanqidiy fikrlash va ijodiy talqinlarni shakllantiruvchi kognitiv jarayon deb ta’riflagan[12]. Ya’ni kompetensiya statik bilim emas, balki dinamik miya jarayoni – o‘quvchi matn orqali neyron bog‘lanishlarni mustahkamlaydi va emotsional intellektni rivojlantiradi. Boshqacha aytganda, adabiyotni psixologik va neyrobiologik rivoj vositasi sifatida ko‘rishni ilgari suradi. Masalan, roman personajlarining his-tuyg‘ularini o‘z hayoti bilan bog‘lab, empatiya qobiliyatini oshirish tushuniladi.

O‘zbek pedagogikasida adabiy kompetensiyaning milliy ta’rifi K. Qo‘ldoshev tomonidan berilgan bo‘lib, u o‘zining “Adabiyot o‘qitish metodikasi” asarida adabiy kompetensiyani o‘zbek o‘quvchilarining milliy adabiyot asarlarini idrok etish, tahlil qilish va milliy qadriyatlar asosida talqin qilish qobiliyatidir deb ta’riflagan[9]. Bu kontseptsiya ta’lim jarayonida o‘quvchilarda nafaqat universal adabiy bilimlarni, balki milliy madaniyat va axloqiy qadriyatlar tizimini ham rivojlantirishni nazarda tutadi. Uning milliy yondashuvini taklif etgan. Uning fikricha, adabiy kompetensiya bu o‘quvchining matnni universal nuqtai nazardan emas, balki o‘zbek madaniy kontekstida chuqur tushunishidir. Maqsad o‘quvchini passiv o‘quvchidan milliy identifikatsiyaga ega faol talqin qiluvchiga aylantirish, masalan, jadid nasrida milliy uyg‘onish ramzlarini o‘zbek tarixi bilan bog‘lashdir.

Boshqa bir tadqiqotchi D. Turdiyeva o‘zbek dissertatsiyasida boshlang‘ich ta’lim kontekstida adabiy kompetensiyani o‘rganib, o‘zining “Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining lingvistik kompetensiyalarini shakllantirishda bolalar adabiyotidan foydalanish” dissertatsiyasida adabiy kompetensiyani boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida bolalar adabiyoti orqali lingvistik va estetik idrokni shakllantiruvchi integratsiyalashgan tizim deb ta’riflagan[11]. Ya’ni kompetensiya statik bilim emas, balki integratsiyalashgan jarayon – bolalar adabiyoti til va estetikani birlashtirib, dastlabki rivojni ta’minlaydi. Boshqacha aytganda, o‘zbek maktablarida amaliy metodlarni ishlab chiqishni ilgari suradi. Masalan, ertak syujetidagi oddiy metaforalarni til va his-tuyg‘u orqali tushunish tushuniladi.

O‘zbek dissertatsiyalaridan yana biri D. Istamova yuqori ta’lim kontekstida adabiy kompetensiyani pragmatik jihatdan ta’riflagan bo‘lib, u o‘zining “Bo‘lajak o‘qituvchilarning pragmatik kompetensiyasini rivojlantirish texnologiyasi” dissertatsiyasida adabiy kompetensiyani bo‘lajak o‘qituvchilarning pragmatik va kommunikativ ko‘nikmalarini adabiy matnlar orqali rivojlantiruvchi vositadir deb ta’riflagan[8]. Bu konsepsiya ta’lim jarayonida o‘quvchilarda nafaqat nazariy bilimlarni, balki hayotiy va kasbiy qo‘llash ko‘nikmalarini ham rivojlantirishni nazarda tutadi. Uning pragmatik yondashuvini taklif etgan. Uning fikricha, adabiy kompetensiya bu o‘quvchining matnni nazariy o‘rganishdan farqli ravishda, innovatsion

texnologiyalar (Scamper, Sketchnoting) orqali amaliy qo‘llashidir. Maqsad o‘quvchini nazariy talabdan amaliy o‘qituvchiga aylantirish, masalan, adabiy matnni sinf darsida interaktiv usulda talqin qilishdir.

MUHOKAMA (Discussion)

Bizning fikrimizcha, adabiy kompetensiya nafaqat nazariy tushuncha, balki o‘quvchilarning shaxsiy rivojlanishiga xizmat qiluvchi amaliy vosita bo‘lib, ayniqsa, jadid adabiyoti kabi milliy madaniyatni aks ettiruvchi asarlarni o‘qitishda uning roli beqiyosdir. Yuqorida ta’kidlangan ilmiy ta’riflar qatorida, biz adabiy kompetensiya tushunchasiga quyidagicha ta’rif beramiz: “Adabiy kompetensiya” bu jadid adabiyoti nasriy asarlarini o‘qitish orqali o‘zbek o‘quvchilarining lingvistik, madaniy, tahliliy va ijodiy ko‘nikmalarini milliy qadriyatlar asosida shakllantiruvchi dinamik tizimdir.

Tadqiqotchi sifatida integrativ yondashuvni taklif etgan bo‘lsak-da, adabiy kompetensiya o‘quvchining jadid nasrini oddiy o‘qishdan farqli ravishda, uning ijtimoiy-siyosiy konteksti, stilistik vositalari va milliy ramzlarini chuqur talqin qilishidir. Maqsad o‘quvchini passiv o‘quvchidan faol, tanqidiy fikrlaydigan va milliy madaniyat egasi bo‘lgan shaxsga aylantirish hisoblanadi.

Adabiy kompetensiyaning mazmuni o‘quvchilarning adabiy asarlarni o‘qish, tushunish va interpretatsiya qilish jarayonida shakllanadigan dinamik tizimdir. Bu tushuncha tilshunoslik va adabiyot nazariyasining integratsiyasi natijasida yuzaga kelgan bo‘lib, o‘quvchiga badiiy matnning ichki strukturasi anglash imkonini beradi[5].

Mazmun jihatdan, u o‘quvchining adabiyotga oid kognitiv, affektiv va behavioristik jihatlarini qamrab oladi, ya’ni bilim, ko‘nikma va munosabatlarni o‘z ichiga oladi. O‘z tadqiqotlarim jarayonida aniqlaganimdek, adabiy kompetensiyaning mazmuni o‘quvchilarning emotsional rivojlanishiga kuchli ta’sir ko‘rsatadi, chunki badiiy asarlar orqali empatiya va tanqidiy fikrlash shakllanadi, bu esa zamonaviy jamiyatda shaxsiy muvaffaqiyat uchun muhimdir.

Zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda adabiy kompetensiyaning mazmuni quyidagi asosiy jihatlarda ifodalanadi:

Badiiy matnni idrok etishda o‘quvchi adabiy asarni sirtqi darajada emas, balki uning semantik va estetik qatlamlarini chuqur anglaydi. Masalan, jadid adabiyoti nasriy asarlarida (Abdulla Qodiriy, Cho‘lpon ijodida) ijtimoiy-siyosiy va madaniy mazmuni tushunish[14] hisoblanadi.

Interpretatsiya va tahlil qilishda matnni turli nazariy yondashuvlar (strukturalizm, feminizm yoki postkolonializm) orqali ko‘rib chiqish[4], ijodiy aplikatsiya jarayonida egallangan bilimlarni yangi kontekstlarda qo‘llash, masalan, o‘z ijodiy faoliyatida yoki hayotiy vaziyatlarda[9] yaqqol namoyon bo‘ladi.

O‘zbek pedagogik adabiyotida adabiy kompetensiyaning mazmuni milliy madaniyat va qadriyatlar bilan uzviy bog‘langan bo‘lib, o‘quvchilarda estetik idrok, empatiya va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiladi[1]. Masalan, o‘zbek olimlari tomonidan yozilgan dissertatsiya ishlarida adabiy kompetensiya bolalar adabiyoti orqali lingvistik va estetik rivojlanishning vositasi sifatida ko‘rib chiqilgan[11].

Mazmunning dinamik tabiati zamonaviy texnologiyalar (raqamli adabiyot va multimedia resurslari) bilan boyitiladi. Bu esa kompetensiyaning hayotiy va kasbiy rivojlanish bilan integratsiya qiladi[12]. Tadqiqotchi nuqtai nazaridan, bu mazmunni o‘qitishda innovatsion yondashuvlarni qo‘llash, masalan, raqamli vositalar orqali, o‘quvchilarning qiziqishini oshirib, kompetensiya rivojini tezlashtiradi.

Adabiy kompetensiyaning tarkibi o‘quvchining badiiy matn bilan muloqotini ta’minlaydigan bir-biriga bog‘liq komponentlardan iboratdir. Adabiy kompetensiyaning tarkibi bo‘yicha nazariyalar tilshunoslik, pedagogika va adabiyot nazariyasining kesishmasida shakllangan bo‘lib, asosan 5-6 komponentli tizimlarni taklif etadi.

Strukturalistik nazariya[5] adabiy kompetensiyaning lingvistik, janr, stilistik va talqin komponentlaridan iborat deb hisoblab, “adabiyot grammatikasi” orqali qoidalarga asoslangan tushunishni ilgari suradi.

Retseptiv-estetik nazariya[6] esa kognitiv, affektiv, estetik, interaktiv va shaxsiy komponentlarni ajratib, o‘quvchining matn bo‘shliqlarini o‘z tajribasi bilan to‘ldirish jarayonini markazga qo‘yadi.

Savodxonlik rivoji nazariyasi[2] fonetik, dekodlash, va kritik komponentlarni bosqichma-bosqich rivojlantirish orqali o‘quvchini savodxonlik piramidasining tepasiga olib chiqishga qaratilgan. Neyrobiologik-kognitiv nazariya[12] neyron, empatiya, kognitiv, ijodiy va integrativ komponentlarni miya tarmoqlarining rivoji asosida birlashtirib, adabiyot orqali emotsional intellektni oshirishni maqsad qiladi.

O‘zbek pedagogik nazariyasi[9] lingvistik, madaniy, axloqiy, estetik, tahliliy va ijodiy komponentlarni milliy kontekstda integratsiya qilib, o‘zbek adabiyoti orqali milliy identifikatsiyani shakllantirishga yo‘naltirilgan. O‘zbek dissertatsiya nazariyalari[11] esa lingvistik, pragmatik, kommunikativ, estetik, innovatsion va integrativ komponentlarni pragmatik yo‘nalishda birlashtirib, nazariyadan amaliyotga o‘tish va texnologiyalarni qo‘llashni ilgari suradi.

Ushbu nazariyalar adabiy kompetensiyaning statik bilim emas, balki dinamik, integrativ va kontekstga bog‘liq tizim sifatida ko‘rsatib, o‘quvchining lingvistik idroki, madaniy ong, tanqidiy fikrlash va ijodiy qo‘llash qobiliyatlarini rivojlantirishga asos soladi.

Boshqa ilmiy manbalarda adabiy kompetensiyaning tarkibi besh asosiy komponentga bo‘linadi[4]. Xususan, lingvistik komponentda adabiy asarning til unsurlarini (leksika, sintaksis,

stilistik vositalar) tushunishga urg‘u beriladi. Masalan, jadid nasrida arab va fors unsurlarini idrok etishni[7] kiritish mumkin.

Kultural komponentda matndagi madaniy va tarixiy kontekstni anglashga ahamiyat qaratiladi. Xususan, jadid adabiyotining milliy uyg‘onish davri bilan bog‘lanishi[14] muhimdir.

Janr komponentida[2] adabiy janrlarning konventsionalini tan olish, teoretik komponentda[4] nazariy yondashuvlarni qo‘llash, stilistik komponentda[5] esa muallif uslubi va ohangini baholash amalga oshiriladi.

O‘zbek pedagogikasida ushbu tarkibga milliy va axloqiy komponentlar qo‘shiladi, bu esa adabiy kompetensiyani ta’lim-tarbiya jarayonining uzviy qismi sifatida ko‘rsatadi[9]. Masalan, mamlakatimizda yozilgan dissertatsiya ishlarida adabiyot o‘qitish metodikasida kompetensiya tarkibi pragmatik va kommunikativ jihatlar bilan boyitilgan deb ta’kidlangan[8].

Tadqiqotchi sifatida, biz bu tarkibni o‘rganishda milliy adabiyotning o‘ziga xosligini hisobga olishni zarur deb hisoblaymiz. Chunki, u o‘quvchilarning madaniy identifikatsiyasini mustahkamlashga yordam beradi. Komponentlarning integratsiyasi o‘quv jarayonida bosqichma-bosqich rivojlantiriladi.

Adabiy kompetensiyaning rivojlanishi o‘quvchining yoshi, tajribasi va ta’lim muhitiga bog‘liq bo‘lgan bosqichma-bosqich jarayondir.

Pedagogik tadqiqotlarda bu bosqichlar umumiy savodxonlik rivojlanish bosqichlari bilan moslashgan bo‘lib, quyidagi besh bosqichni o‘z ichiga oladi[10]: Boshlang‘ich bosqichda o‘quvchi matnni oddiy o‘qish va tushunishni o‘rganadi. Lingvistik va kultural komponentlar rivojlanadi. O‘tish bosqichida tahlil ko‘nikmalari shakllanib, janr va stilistik unsurlar ajratiladi. Tahliliy bosqichda chuqur interpretatsiya, nazariy yondashuvlar qo‘llanilsa, sintetik bosqichda matnni baholash va solishtirish amalga oshiriladi. So‘nggi ijodiy bosqichda o‘zining talqini va ijodi yaratiladi.

Bundan tashqari, adabiy kompetensiyaning rivojlanish bosqichlari tadqiqotchi Jeanne S. Chall nazariyasiga asoslangan holda besh bosqichdan iborat ekanligi qayt etilgan. Unga ko‘ra boshlang‘ich (6-8 yosh) bosqichda oddiy o‘qish va til idroki shakllansa, o‘tish (8-10 yosh) bosqichida janr unsurlari ajratiladi. Tahliliy (10-12 yosh) bosqichda chuqur tahlil va kontekst tushunilsa, sintetik (13-15 yosh) bosqichda tanqidiy baholash va solishtirish amalga oshiriladi. Ijodiy (16+ yosh) bosqichda esa o‘quvchi o‘z talqin va ijodini yaratadi.

O‘zbek pedagogikasida bu bosqichlar milliy kontekstga moslashtirilib, uzluksiz ta’lim printsipli asosida o‘qituvchi monitoringi bilan individual rivojlantiriladi[13]. Shu bilan adabiy kompetensiya nafaqat kognitiv, balki estetik, axloqiy va pragmatik jihatlarda ham to‘liq shakllanadi.

Bizningcha, bu bosqichlarni amaliyotda qo‘llashda individual yondashuv muhim. Chunki, har bir o‘quvchining rivojlanish tezligi farq qiladi va bu didaktik jarayonni samaraliroq qiladi.

Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, adabiy kompetensiya tushunchasi xorijiy nazariyalar va o‘zbek pedagogik yondashuvlari kesishmasida yanada boyiydi. Ayniqsa, jadid adabiyoti nasriy asarlari o‘quvchilarda milliy identifikatsiya, ijtimoiy ong va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun samarali vosita hisoblanadi.

Integrativ yondashuv adabiy kompetensiyani faqat nazariy tushuncha sifatida emas, balki amaliy-didaktik mexanizm sifatida qo‘llash imkonini beradi. Bu esa o‘quvchini passiv o‘quvchidan faol, tanqidiy va ijodiy shaxsga aylantirishga xizmat qiladi.

XULOSA (Conclusion)

Xulosa qilib aytganda, yuqorida tahlil etilgan ilmiy ta'riflar, tarkib nazariyalari va rivojlanish bosqichlari asosida adabiy kompetensiya tushunchasi 10-11-sinflarda jadid adabiyoti nasriy asarlarini o‘qitishning didaktik asosini tashkil etadi. Biz taklif etgan integrativ ta'rifga ko‘ra, adabiy kompetensiya lingvistik, madaniy, tahliliy, estetik va ijodiy komponentlardan iborat dinamik tizim bo‘lib, xorijiy (Kaller, Iser, Chall, Vulf) va o‘zbek (Qo‘ldoshev, Turdiyeva, Istamova) olimlarning qarashlarini milliy kontekstga moslashtirgan holda, o‘quvchilarda sintetik bosqichda tanqidiy fikrlash va milliy identifikatsiyani shakllantirishga yo‘naltirilgan.

Tadqiqotchi sifatida shuni aytish mumkinki, jadid nasrining ijtimoiy-siyosiy mazmuni va stilistik xususiyatlari ushbu kompetensiyaning to‘liq rivojlanishi uchun optimal vosita bo‘lib, o‘quvchilarni passiv idrokchilardan faol, tanqidiy va ijodiy shaxslarga aylantirish imkonini beradi. Ushbu nazariy asos keyingi bo‘limlarda samarali metod va texnologiyalarni ishlab chiqishga zamin yaratadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (References)

1. Abdullaeva Sh. Adabiyot darslari orqali o‘quvchilarda sharqona tarbiyani shakllantirish // CyberLeninka. 2022. - № 2. –B. 112-125.
2. Chall J. S. Stages of Reading Development. – New York: McGraw-Hill, 1983. - 293 p.
3. Chomsky N. Aspects of the Theory of Syntax. – Cambridge: MIT Press, 1965. - 261 p.
4. Culler J. Literary Theory: A Very Short Introduction. – Oxford: Oxford University Press, 1997. - 149 p.
5. Culler J. Structuralist Poetics: Structuralism, Linguistics and the Study of Literature. – London: Routledge & Kegan Paul, 1975. - 301 p.
6. Iser W. The Act of Reading: A Theory of Aesthetic Response. – Baltimore: Johns Hopkins University Press, 1978.-278 p.
7. Ismoilova N. Badiiy nomlar vositasida talabalar lingvistik kompetensiyalarini rivojlantirish // CyberLeninka. - 2021. - № 3. - B. 78-89.

8. Istamova D.S. Bo‘lajak o‘qituvchilarning pragmatik kompetensiyasini rivojlantirish texnologiyasi (Scamper, Sketchnoting misolida): Ped.fan.nomz. diss. avtoref. –Samarqand: SamDU, 2023. - 48 b.

9. Qo‘ldoshev K. Adabiyot o‘qitish metodikasi. –Namangan: NamDU, 2024. - 250 b.

10. The Literacy Bug. Stages of Literacy Development. 2024. - URL: <https://www.theliteracybug.com/stages-of-literacy> (kirilgan sana: 20.10.2025).

11. Turdiyeva D. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining lingvistik kompetensiyalarini shakllantirishda bolalar adabiyotidan foydalanish pedagogik muammo sifatida // In-Academy. – 2023. - № 1. –B. 111-120.

12. Wolf M. Proust and the Squid: The Story and Science of the Reading Brain. – New York: Harper Perennial, 2008. – 336 p.

13. Xaydarov A. Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta’limning asosiy jihatlari // CyberLeninka. - 2023. - № 4. –B. 67-78.

14. Xudoyberganova D. Zamonaviy adabiyot darslarida qadriyatga asoslangan ta’limni tashkil etish usullari // CyberLeninka. - 2023. - № 1. –B. 45-56.